

## MAVZU: Alohida Yordamga Muhtoj O`Quvchilarning Ijtimoiy-Maishiy Moslashuvi

D. A. Anvarova<sup>1</sup>

**Annotation:** In order for the pedagogical team of the special education specialist to help parents with developmental disabilities, it is necessary to first carry out systematic and goal-oriented work with the staff of the school, institution, and then gradually, comprehensively thought out work of educators with parents. It is necessary to learn to work with children and their parents, taking into account the objective situation.

**Keywords:** Mental retardation, learners, cognitive processes, needs special help;

Alohida yordamga muhtoj o`quvchilarning ijtimoiy-maishiy moslashuvi ijtimoiy moslashuv (adaptatsiya) tushunchasi – individni ijtimoiy muhit sharoitlariga doimiy, faol moslashuvi, hamda bu jarayon natijasi. Garchi ijtimoiy adaptatsiya muntazam kechsada, bu jarayon odatda vaqti – vaqti bilan individ va uni atrofida hayotida va faoliyatida eng ahamiyatli o`zgartirishlar bilan bog`lanadi.

Ijtimoiy moslashuvdagi markaziy aspekt-individning ijtimoiy rolini qabul qilishi hisoblanadi.

Ijtimoiy moslashuvda kompleks reabilitatsiyalar tizimi imkon qadar yuqori darajadagi tayyorgarlikni ta`minlaydi. U taqdim etilgan uchta ko`rinishdagi asosiy bosqichlarda bo`lishi mumkin: adaptatsion – diagnostik, korreksion va integratsion, ularning har biri o`ziga xos vazifalarni amalga oshiradi.

*Birinchi bosqichda* bola shaxsining rivojlanishiga tashxis qo`yiladi, va u bilan reabilitatsion imkoniyati va eng maqbul korreksion – tarbiyaviy ishlari aniqlanadi.

*Ikkinchi bosqichda* bola bilan reabilitatsiya tadbirlari tashkil etiladi va o`tkaziladi, hamda ota onasi yoki tarbiyachi reabilitatsion texnologiyalarga o`qitiladi.

*Uchinchi bosqichda* ijtimoiy jamiyatda bolani integratsiyalash yollari aniqlanadi va ma`lum davr orasida jami kompleks reabilitatsiya olib boriladi.

Alohida yordamga muhtoj bolani kompleks reabilitatsiyalash quyidagi ko`rinishda bo`ladi: “tibbiy, psixologik, pedagogik va ijtimoiy – iqtisodiy qabul qilingan tizim va jarayon, bartaraf etish, korreksiyalashga yo`naltirilgan yoki to`liq kompensatsiya”. Uning maqsadi “aloxida yordamga muhtoj bolaning ijtimoiy mavqeini, moddiy jihatdan mustaqilligini va uning ijtimoiy moslashishini reabilitatsiyalash”.

Maxsus ta`lim muassasalarida yoki internat turidagi muassasalarda tibbiy – ijtimoiy reabilitatsiya ishlari alohida yordamga muhtoj bolalar uchun o`quv jarayonini tashkil qilishda, ularning ijtimoiy-maishiy moslashuvini amalga oshirish jarayonida, o`ziga xos tomonlarini aniqlashda amalga oshiriladi.

Ijtimoiy reabilitatsiya orqali bola shaxsining o`ziga xos psixologik xususiyatlari rivojlantiriladi. Jarayon davomida rivojlanishida murakkab ko`p nuqsonli bola bilan vujudga keladigan g`oyat katta miqdordagi ichki va tashqi omillar bilan bog`liq bir qator muammolar bola rivojlanishiga ta`sir ko`rsatadi. Ushbu jarayonni samarali boshlash uchun ularning o`ziga xos xususiyatini o`rganish, ijobiy va salbiy tomonlarini, ta`sir etish natijalarini oldindan ko`rish va korreksiyalashni o`z vaqtida boshlash kerak.

<sup>1</sup> Nizomiy nomli TDPU Oligofrenopedagogika kafedrasida o`qituvchisi



V.A.Slasteninining fikriga ko‘ra, ijtimoiylashuv (sotsializatsiya) jarayonida inson shaxsi tiklanadi, u ijtimoiy funksiyalarni bajarish qobiliyatini egallaydi, ya’ni uni rivojlanishini, o‘z mavqeini belgilab olishi va o‘zi amalga oshirishini nazarda tutadi. Bu vazifalar izchillik bilan, aniq maqsadga qarab hal qilinadi. Bu aniq maqsadga qarab uyushgan ijtimoiy jarayonni boshqarish - ta’lim deb nomlanadi. Ta’lim tushunchasidan (“qiyofa” so‘zidan) shaxsning yagona jismoniy va ma’anaviy jarayoni tushuniladi, sotsializatsiya jarayoni ayrim benuqson qiyofalar, tarixiy bog‘liqlikda, jamoat ongida ortiqroq yoki kamroq ijtimoiy aniq o‘lchamlarda tushuniladi (masalan, o‘zaro mos rivojlangan shaxs va boshqalar).

Alohida yordamga muhtoj bolalar bilan ishlash jarayonida korreksion ishlarning ahamiyati katta. Bu ishlar qanchalik sifatli amalga oshirilsa, bolaning shunchalik bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishi oson kechadi.

Bolalik bosqichida inson psixologo-pedagogik jihatdan kuchli ta’sirlanadi. O‘z kelayotgan bola organizmi, uning miya tuzilishining ichki imkoniyatlari chegarasizligini inobatga olgan holda tashkil etilgan korreksion-pedagogik, psixologik hamda tibbiy ishlar bolaning birlamchi nuqsonini kamaytirib, ikkilamchi nuqsonlarni oldini olishga yordam beradi. Bularning hammasi bolani mustaqil, hech kimga qaram bo‘lmagan holda hayot kechirishga tayyorlash omillaridir.

Bolalarni ijtimoiy rehabilitatsiyasi va moslashuvi – bu nafaqat qalbdagi sifatlarni, balki yangi texnologiya va inovatsiyalarning paydo bo‘lishi bilan tadrijiy rivojlanib boradigan bu nozik soxada professional yondoshuvni talab qiladigan serdiqqat mexnatdir. Bu soxaning takomillashuvida nogironligi bo‘lgan bolalar bo‘yicha idoralararo elektron ma’lumotlar bazasi yaratildi, makroiijtimoiy darajada imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiy moslashuvi xolatini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar olib borildi.

#### **Adabiyotlar:**

1. R.Mavlonova, O.To‘rayeva, K.Xoliqberdiyev Pedagogika.«O‘qituvchi»,2000 y.
2. Abu Nasr Forobiy. “Fozil odamlar shahri” \ tuzuvchi Mahmudov M. – T.: Xalq merosi. 1993.
3. Rahmanova V.S. Maxsus pedagogika (mutaxassislikka kirish).T. G‘.G‘ulom. 2005 y
4. Р. Ш. Шомах.мудова, Л.Ш.Нурмухаммедова, д.р.тулаганова имконияти чекланган болаларни оилад тарбиялаш (ота-онштр учун илмий-услужбий кулланма), Т.2013.;
5. М.Ю. Аюпова «Logopediya» -Т. « O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati», 2007-yil.

